O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA METONIMIYANING SEMANTIK TURLARI

Axrorova Jamila Agzamovna
Farg‘ona davlat universiteti 2 – kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida metonimiyaning semantik turlari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot G.Radden va Z.Kovecheshning [1, 21] Ideallashtirilgan Kognitiv Modeli (ICM) asosida tasnifi hamda Panter va Tornburg [2,4-6] ning diskursiv-pragmatik klassifikatsiyasiga tayanadi. Badiiy adabiyot, xaalq maqollari va publitsistik matnlardan tanlangan 320 ta metonimik birlik tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida tana a’zolari metonimiyasi, ingliz tilida esa joy nomi va muassasa metonimiyasi ustunlik qiladi. Maqola kognitiv tilshunoslik, komtrastiv semantika va tarjimashunoslik sohalari uchun ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *metonimiya, semantik tur, kognitiv tilshunoslik, ICM, o‘zbek tili, ingliz tili, chog‘ishtirma tahlil.*

KIRISH

Metonimiya hodisasi tilshunoslik tarixida Aristotelning antik davr asarlaridan to zamonaviy kognitiv tilshunoslikkacha uzluksiz tadqiq etilgan badiiy-tasviriy vosita va kognitiv mexanizm hisoblanadi. An’anaviy ritorika metonimiyani faqat badiiy nutq elementi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi bu yondashuvni tubdan o‘zgartirdi [3, 37]. Lakoff va Johnson [3, 37] ning fundamental asarida metonimiya nafaqat lisoniy, balki insonning dunyo haqidagi tafakkur tarzini belgilovchi kognitiv jarayon sifatida ta’riflandi: “Metonymy allows us to use one entity to refer to another that is related to it” [3, 37].

O‘zbek va ingliz tillari tipologik va genetik jihatdan tubdan farqlanuvchi til oilalariga mansub. O‘zbek tili turkiy-agglutinativ tizimga kirsa, ingliz tili germano-analitik tizimga tegishlidir. Bu tipologik farqlar ikkala tilda metonimiyaning lisoniy ifodalanish shakllari, semantik turlari va lingvomadaniy xususiyatlarida sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi [5, 313]. Shu sababli ikki tilda metonimiyaning semantik turlarini chog‘ishtirma-qiyosiy o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi - o‘zbek va ingliz tillarida metonimiyaning asosiy semantik turlarini Radden va Kovechesh [1, 17-59] ning ICM asosidagi tasnifi doirasida chog‘ishtirma tahlil qilish, ularning universal va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishdir.

1. Metonimiyaning semantik tasnifiga yondashuvlar

Metonimiyaning semantik turlarini tasniflashda eng keng tan olingan yondashuv Radden va Kövechesh [1, 21] tomonidan ishlab chiqilgan ICM asosidagi taksonomiya hisoblanadi. Ular metonimiyani ikkita yirik guruhga bo‘ladi: (1) BUTUN ICM VA UNING QISMLARI va (2) ICMning QISMLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABAT. Birinchi guruh 21 ta, ikkinchi guruh esa 22 ta metonimiya turini qamrab oladi, jami 43 ta semantik model aniqlanadi [1, 33-57].

Panther va Thornburg [2, 4-6] diskurs darajasida metonimiyani uch turga ajratadi: referensial metonimiya (bilvosita murojaat), predikatsion metonimiya (bir bayonot orqali boshqasini ifodalash) va illokutsion metonimiya (bir nutq akti boshqasi o‘rnida). Bierwiaczonek [6, 10] bu taksonomiyani kengaytirib, formal metonimiyani qo‘shib to‘rt turli tasnif yaratdi.

2. O‘zbek tilida metonimiyaning semantik turlari

O‘zbek tilida metonimiyaning eng keng tarqalgan semantik turi - tana a’zolari vositasidagi metonimiya bo‘lib, tadqiqot korpusidagi 320 ta birlikning 38,4 foizini tashkil etadi. Mirtojiyev [7, 87] o‘zbek tili semantikasini o‘rganishda tana a’zolari leksemalarining - til, ko‘z, qo‘l, dil, bosh - nihoyatda keng metonimik tarmoq hosil qilishini ta’kidlagan: tana a’zolari leksemalarining semantik tarmoqlari o‘zbek tiliga xos kognitiv-madaniy modellarni aks ettiradi [7, 89].

Tana a’zolari metonimiyasining eng yorqin namunalari badiiy adabiyotda kuzatiladi. Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" [8] romanida “Toshkent o‘raldi!” (38-b.) iborasida joy nomi aholi o‘rnida metonimik qo‘llaniladi: shahar nomi uning barcha aholisi va mudofaachilarini ifodalaydi. “Toshkent bilaн yashirincha so‘z olishib” [278-b.] iborasida esa “Toshkent” shahar rahbarlari va vakillarinini ifodalaydi - JOY → MUASSASA semantik modeli.

“Mehrobdan chayon” [8] asarida rang va harorat sifatlarining metonimik qo‘llanishi kuzatiladi: “шshirn suhbat” [113-b]) iborasida TA’M SIFATI → MULOQOT SIFATI; “qora kunlar” [60-b.] iborasida RANG → OG‘IR TARIXIY DAVR; “sovuqqonlik” [111-b.] iborasida HARORAT → PSIXOLOGIK HOLAT semantik modeli namoyon bo‘ladi.

Mirzayev, Musoqulov va Sarimsoqovning “O‘zbek xalq maqollari” [9] to‘plamida ham metonimiyaning turli semantik modellari aniqlandi. “El og‘zi — yer yoradi” maqolida [(9-b.]” "el” sinekdoxa, “og‘iz” esa ORGAN → JAMOATCHILIK FIKRI metonimiyasi. “Ko‘z tarozi, ko‘ngil - qozi” (22-b.) maqolida “ko‘z” → IDROK, “ko‘ngil” → VIJDON metonimiyasi yorqin namoyon bo‘ladi.

3. Ingliz tilida metonimiyaning semantik turlari

Ingliz tilida metonimiyaning asosiy semantik turi joy nomi va muassasa metonimiyasi bo‘lib, korpusdagi inglizcha birliklarning 27,9 foizini tashkil etadi. Littlemore [10, 3] ta’kidlaganidek, ingliz tilida “Wall Street” - moliya bozori, “Silicon Valley” - texnologiya sanoati, “The White House” - AQSh ma’muriyati metonimiyalari JOY → MUASSASA semantik modelining eng produktiv namunalaridir.

Jon Boyne “The Boy in the Striped Pyjamas” [11] asarida rang metonimiyasidan samarali foydalanadi. “Grey striped pyjamas” (24-b.) iborasida RANG+KIYIM → MAHBUSLIK; “black boots” (52-b.) iborasida KIYIM → SHAXS XARAKTERI (Kotlerning zolim tabiati); “red-and-black armbands” (55-b.) iborasida RANG → SIYOSIY MAFKURA semantik modeli namoyon bo‘ladi.

Ingliz maqollarida ham metonimiya keng qo‘llaniladi: “The pen is mightier than the sword” iborasida “pen” → intellektual kuch, “sword” → zo‘ravonlik tipidagi QUROL → FAOLIYAT metonimiyasi mavjud. “We await word from the crown” iborasida “crown” → monarxiya BUYUM → MUASSASA metonimiyasi namoyon bo‘ladi [10, 45.].

4. Qiyosiy tahlil va jadval

Jadval 1.

O‘zbek va ingliz tillarida metonimiyaning semantik turlarini taqsimlanishi

Semantik tur	O‘zbek (%)	Ingliz (%)	ICM modeli
Tana a’zolari metonimiyasi	38,4	17,1	A’ZO → FAOLIYAT/XUSUSIYAT
Joy nomi metonimiyasi	11,7	27,9	JOY → MUASSASA/AHOLI
Rang metonimiyasi	14,2	15,8	RANG → AXLOQ/HOLAT
Kiyim/buyum metonimiyasi	10,6	17,5	BUYUM → SHAXS/FAOLIYAT
Muassasa metonimiyasi	7,9	15,0	MUASSASA → FAOLIYAT
Madaniy-xos metonimiya	17,2	6,7	RAMZ → TUSHUNCHA

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikkala tilda ham rang metonimiyasi taxminan teng ulushda uchraydi. O‘zbek tilida tana a’olari metonimiyasining ustunligi Mirtojiyev [7, 87] ta’kidlaganidek, agglutinativ morfologiya va jismoniy tajribaga asoslangan kognitiv modellarning kuchli ta’sirini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa joy nomi va muassasa metonimiyasining yuqori darajasi bu tilning xalqaro siyosiy va iqtisodiy muloqotdagi muhim o‘rni bilan izohlanadi [10, 3].

XULOSA

Ushbu tadqiqot o‘zbek va ingliz tillarida metonimiyaning semantik turlarini chog‘ishtirma-qiyosiy tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldi. Birinchidan, metonimiya ikkala tilda ham universal ICM asosidagi kognitiv mexanizm sifatida faoliyat ko‘rsatadi, bu Radden va Kovechesh [1, 21] nazariyasining tillararo universalligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, o‘zbek tilida tana a’zolari metonimiyasi (38,4%) dominant bo‘lib, bu agglutinativ morfologiya imkoniyatlari va jismoniy tajribaga asoslangan kognitiv modellar bilan bog‘liq [7, 89]. Uchinchidan, ingliz tilida joy nomi va muassasa metonimiyasi (27,9%) ustunlik qiladi. Bu tilning global siyosiy va iqtisodiy diskursdagi rolini aks ettiradi [10, 3].

To‘rtinchidan, madaniy-xos metonimiyalar o‘zbek tilida (17,2%) ingliz tiliga (6,7%) nisbatan ancha ko‘p, bu ikkala tilning o‘ziga xos kognitiv-madaniy manzarasini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, ikki tilli leksikografiya va lingvokulturologiya sohalari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi [5, 313-352].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Radden G., Kövecses Z. Towards a theory of metonymy // Metonymy in Language and Thought / Ed. K.-U. Panther, G. Radden. — Amsterdam: John Benjamins, 1999. — B. 17–59.

2. Panther K.-U., Thornburg L. Metonymy and Pragmatic Inferencing. — Amsterdam: John Benjamins, 2003. — 280 b.

3.Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 242 b.

4. Lakoff G. Women, Fire and Dangerous Things. — Chicago: University of Chicago Press, 1987. — 614 b.

5. Barcelona A. (Ed.). Metaphor and Metonymy at the Crossroads. — Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. — 356 b.

6. Bierwiaczonek B. Metonymy in Language, Thought and Brain. — Sheffield: Equinox, 2013. — 297 b.

7. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semantikasi. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. — 192 b.

8. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. — 448 b.

9. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. — Toshkent: Sharq, 2005. — 512 b.

10. Littlemore J. Metonymy: Hidden Shortcuts in Language, Thought and Communication. — Cambridge: Cambridge University Press, 2015. — 246 b.

11. Boyne J. The Boy in the Striped Pyjamas. — Oxford: David Fickling Books, 2006. — 216 b.

11. Rahmatullayev Sh., Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi O‘zbek Adabiy Tili. — Toshkent: O‘zbekiston, 1992. — 400 b.